

# URF-ODAT, MAROSIMLAR BILAN BOG‘LIQ LUG‘AVIY VA TURG‘UN BIRIKMALAR O‘RTASIDAGI MUNOSABAT

*Sh. Aripova*

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

## **Annotatsiya**

Mazkur maqolada urf-odat, marosimlar bilan bog‘liq lug‘aviy va turg‘un birikmalar o‘rtasidagi munosabatlar haqida atroflicha fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kelin, kuyov, maqol, matal, qaynona, qaynsingil, qiz, to‘y.

## **Аннотация**

В данной статье подробно рассматриваются отношения между лексическими и устойчивыми сочетаниями, связанными с обычаями и ритуалами.

**Ключевые слова:** невеста, жених, пословица, мatal, свекровь, золовка, девица, свадьба.

## **Abstract**

This article examines in detail the relationship between lexical and set combinations associated with customs and rituals.

**Key words:** bride, groom, proverb, folk tale, mother-in-law, sister-in-law, girl, wedding.

Ma‘lumki, qadimdan dunyo xalqlarning urf-odatlarini, an‘ana va rasm-rusmlarida o‘sha xalqning tarixi, madaniyati, dunyoqrashini va kundalik turmush tarzini aks ettiruvchi turg‘un birikmalar o‘z ifodasini topadi. Turg‘un birikmalarga frazeologizm, maqol, matallar kiradi. Biz quyida ularning ma‘nosiga atroflicha to‘htalib o‘tamiz.

**Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema** – ikki yoki undan ortiq soʻzdan tashkil topgan, maʼnoviy jihatdan oʻzaro bogʻliq soʻz birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan va boʻlinmaydigan, barqaror (turgʻun) bogʻlanmalarning umumiy nomi[1]

**Maqol** – xalq ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap. Nutqda keng qoʻllanuvchi muayyan, barqaror ritmik shaklga ega boʻlib, ular xalqning koʻp asrlik hayotiy tajribalari asosida yuzaga kelgan. Maqollarda avlod-ajdodlarimizning hayotiy kuzatishlari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan[2-569]

**Matal** – folklor atamasi. U yoki bu hayotiy voqelikka emotsional-ekspressiv tus beruvchi, xalq orasida tarqalgan ifodalar, xalq ogʻzaki ijodi janrlaridan biri”[3-555] Matalda narsa tasviri, uning xarakteristikasi beriladi, maqolda esa toʻla tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi. Maqollar nutqimizni bezuvchi, obrazli fikrlashning goʻzal namunasi hisoblanadi. Matal xalq maqoli bilan baʼzi oʻxshashliklarga ega boʻlsa-da, lekin oʻziga xos jihatlari bilan undan farqlanib turadi. Bu tafovutlar quyidagilardir: maqollar nutqda yaxlit hukm sifatida qoʻllanilsa, matallar hukmning qismi funksiyasini bajaradi; maqollarning tematik doirasi keng boʻlsa, matallar konkret temaga va qatʼiy funksional qoʻllanilishga ega; maqollar konkret shakliy tuzilishga ega boʻlsa, matallarda shakliy qatʼiylik mavjud emas; maqollar baʼzan koʻchma, baʼzan esa oʻz maʼnosida qoʻllanilsa, matallar hamma vaqt koʻchma maʼno tashiydi[4].

Tilshunos olim Z. Pazilova paremiologik birliklarga quyidagicha taʼrif beradi. Maʼlumki, paremiologik birliklar deganimizda maqol, matal, turli xildagi hikmatli ifodalarni tushunamiz. Turli xalqlarning maqollari, matallari asrlar osha tarixiy tajribalar asosida ota-bobolarimizning ibratli oʻgit-maslahatlari shaklida yashab kelayotgan ifodalar hisoblanadi. Shak-shubhasiz, bunday birliklarda

xalqlarning dunyoqarashlari, e'tiqodlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari o'z aksini topadi[5-81]

Z.Pazilova urf-odat ifodalovchi lug'aviy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishda ularning xalq maqollari, matallari tarkibida qo'llanilishini to'y bilan bog'liq tushunchalar asosidagi paremalarga va farzand, ota-ona bilan bog'liq tushunchalar asosidagi paremalarga haqli ravishda bo'ladi[6-82,84] Z. Pazilova to'y bilan bog'liq tushunchalar asosidagi paremalarni keng ko'lamda tadqiq qilgan bo'lsa, biz esa faqatgina nikoh bilan bog'liq paremiologik ifodalarni tahlil qilishga harakat qilamiz:

**1. Nikoh bilan bog'liq tushunchalar asosidagi paremalar.** Mazkur ifodalar tarkibidagi *nikoh, kelin, kuyov, quda, qaynona, qaynsingil, qalin* va boshqa leksemalar denotativ va motivatsiya munosabatiga kirishadi.

O'zbek tilida nemis tiliga qaraganda to'y, nikoh bilan bog'liq tushunchalar asosidagi maqol va matallar ko'p uchrashini kuzatdik. Ularda o'zbek xalqining tarixiy an'analari, rasm-rusumlari ma'lum darajada aks etadi. Masalan, *to'y* leksemasi ishtirok etgan bir qator paremalar mazmunan to'y bilan bog'liq ba'zi xususiyatlarga ishora qilishi ham, ba'zilarida esa o'xshatish, qiyoslash maqsadida ushbu birlikka murojaat qilinganini ham ko'rishimiz mumkin.

*“To'ydan oldin nog'ora qoqma”*, *“Yaxshi o'g'il uy tuzar, yomon o'g'il to'y buzar”*, *“Maslahatli to'y tarqamas”*, *“O'lganiga chidasang, qo'y qil, yeganiga chidasang, to'y qil”*, *“Osh – otliniki, to'y – to'nliniki”*, *“Yig'loqi qizning to'yida yomg'ir yog'ar”*, *“Kerilganning to'yiga bor, maqtanganning uyiga”*, *“Xotining yaxshi bo'lsa, to'yga bormoq na hojat, xotining yomon bo'lsa, azaga bormoq na hojat”* kabi paremiologik birliklarda *to'y* leksemasi orqali urf-odatlarimizning turlicha ma'no va mazmun kasb etishini guvohi bo'lamiz. Nemis tilidagi *“Die Ehe ist ein Hafen im Sturm, öfters aber ein Sturm im Hafen”* (Nikoh – bu bo'rondagi port, lekin ko'pincha portdagi bo'rondir), *“Liebe leiht Flügel. Es sind aber wächserne, die an der*

*Fackel der Ehe schmelzen*” (Sevgi qanot beradi. Lekin ular nikoh mash’alasida eriydigan mumdir), *“Selbst eine gute Ehe ist Bußzeit*” (Hatto yaxshi nikoh ham tavbadir), *“Eine Ehe beruht auf dem Talent zur Freundschaft*” (Nikoh do’stlik qobiliyatiga asoslanadi), *“Heirate in Eile und bereue in aller Ruhe*” (Shoshqaloqlik bilan turmush qurish va tinchlik bilan tavba qilish yoki shoshilgan qiz erga yolchimas), *“Heiraten heißt nicht, einen Bastschuh anzuziehen*” (Turmush qurish poyabzal kiyish degani emas) singari qator paremiologik birliklarda turmushning oson emasligi, uning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari borligi, nikohda o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash, samimiylik bo‘lishi lozimligi, oila muqaddasligi sabab, unga shoshilmasdan o‘ziga xos ravishda tayyorgarlik ko‘rish yoki turmush qurish lozimligiga ishora qilinayotganini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek tilidagi *“Qiz chog‘im – sulton, kelin chog‘im – ulton*”, *“Kelinga kelin bo‘lmasang, kelisop tegar boshingga*”, *“Onasiz kelin – yuvosh, onali kelin – bebosh*” kabi matallarda o‘zbek urf-odatlarining natijasi o‘laroq, kelinga kamsitish, past nazar bilan qarash munosabati ko‘zga tashlanayotganini bilishimiz mumkin.

Ma’lumki, qaynona-kelin munosabatlari ko‘pchilik xalqlarda, jumladan, o‘zbek va nemis xonadonlarida ham azaliy muammo sifatida davom etib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Urf-odatlarimiz ko‘zgusi bo‘lgan paremiologik birliklarda ana shu munosabat aniq namoyon bo‘ladi: **“Qaynonaniki o‘rtada, kelinniki xaltada**”, **“Qo‘ldan kelganini ayamadim, hech qaynonamga yaramadim**”, **“Qaynona qaynaydi, kelini aynaydi**”, **“Kelin kimxob kiyar, qaynona qarg‘ab kuyar**”, **“Itning jini – devona, kelinning jini – qaynona**” kabilarni misol tariqasida keltirsak, nemis xalqida esa *“Die Schwiegermutter spricht Honig, aber sie meint Galle*” (Qaynona asaldek gapirsa ham, zahardek tuyuladi), *“Die Schwiegermutter ist gegen die Schwiegertochter und die Schwiegertochter gegen die Schwiegermutter zum Verdacht geneigt*” (Qaynona kelinga qarshi, kelin esa qaynonaga qarshi deb shubha qiladi), *“Eine*

*Schwiegermutter ist bitter und wäre sie auch von Zucker*” (Qaynona shakardan bo‘lsa ham, achchiq), *“Die böse Schwiegermutter hat auch hinten Ohren”* (Yomon qaynonaning orqasida ham quloqlari bor), *“Die Schwiegermutter die sich um alles kümmert, gebührt ein Drittel der Schläge, die für die Frau bestimmt sind”* (Hamma narsaga g‘amxo‘rlik qiladigan qaynona ayol uchun mo‘ljallangan kaltaklarning uchdan biriga loyiqdir) kabilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Mazkur maqollar ham qaynona-kelin munosabatlari o‘rtasidagi qaysidir jihatlarni, odatlarni ko‘rsatib berayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

“**Qizim**, senga aytaman, **kelinim**, sen eshit” maqoli orqali “bir gapni (turli sabablarga ko‘ra) tegishli odamning yuziga bevosita aytmaydilar-da, uning ishtirokida boshqa birovga aytadilar. Tegishli odam ziyrak, uquvli bo‘lsa, bu gap uning o‘ziga tegishli ekanini darhol fahmlab oladi va shunga ko‘ra ish tutadi”, [7-415] - deyiladi. Aslida bu matalning kelib chiqishi urf-odatlarimiz, xalqimizning qarashlariga borib taqaladi, ya‘ni kelinning bajarishi lozim bo‘lgan uy yumushlari, unga aloqador tanbehlar qizga gapirish orqali bildirilishi ko‘zda tutilgan. Bu o‘rinda ham urf-odatlarimizga xos ravishda **qiz** leksemasidagi “yaqinlik”, **kelin** leksemasidagi bir oz “begonalik” ma’nolari anglanadi.

Nikoh bilan aloqador barqaror birliklar tarkibida qo‘llanuvchi **kuyov** va **o‘g‘il**, **qiz** va **kelin** leksemalarida milliy urf-odatlarimizni namoyon etishga xizmat qiluvchi xususiyatlar ifodalanadi. Masalan, o‘zbek xalqida “**Kuyov-kuyov yig‘ilib o‘g‘il bo‘lmas, Kelin-kevat yig‘ilib, qizing bo‘lmas**” deyilsa, nemis xalqida “Eine gute Schwiegertochter ist besser als die eigene Tochter, ein guter Schwiegersohn ist besser als der eigene Sohn.” (Yaxshi kelin o‘z qizingdan yaxshiroq, yaxshi kuyov o‘z o‘g‘lingdan yaxshiroq) degan maqol bilan buning aksini ko‘rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. <https://uz.wikipedia.org>. Murojaat sanasi. 09.12.2020

2. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. 2-том. Т.: "ЎЗМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 569 б.
3. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш томлик. 2-том. Т.: "ЎЗМЭ" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 555 б.
4. «Ўзбекистон номоддий маданий мероси» сайти. Мурожаат санаси. 19.03.2021
5. Pazilova Z. O‘zbek va nemis tillarida urf-odat ifodalovchi leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok.diss.-Farg‘ona,2023.-81b
6. Pazilova Z. O‘zbek va nemis tillarida urf-odat ifodalovchi leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dok.diss.-Farg‘ona,2023.-82-84b
7. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 415 б.
8. 1. Акбарова, Ш. Ф. (2023). ЎЗБЕК НАСРИДА А. КАМЮ ТАЪСИРИ ВА ТАЛҚИНИ. *Scientific progress*, 4(4), 321-325.
9. 2. G‘aniyevna, A. S. (2023). TALABALARNING FRANSUZ TILIDA KOMMUNIKATIV QOBILİYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *SO‘NGI ILMIIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(6), 311-315.
- 10.3. Akbarova, S. G. (2023). TYPOLOGICAL SIMILARITY AND INTERACTION–AN ACTUAL PROBLEM OF COMPARATIVE LITERATURE. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*, 8(8), 19-22.
- 11.4. Акбарова, Ш. (2022). Адабиётшуносликда талқин ва герменевтика масалалари. *Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке*, (1), 44-45.